MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.FM.01.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

QUDAYBERGENOV ALLAMBERGEN KENGESBAEVICH

ELLIPTIK TENGLAMA UCHUN KOSHI MASALASINING YECHILISH SHARTLARI TO‘G‘RISIDA

01.01.02 – Differensial tenglamalar va matematik fizika

FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PHD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

TOSHKENT – 2025

UDK: 917.956.2

Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on physical-mathematical sciences

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по физико-математическим наукам

MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.FM.01.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

QUDAYBERGENOV ALLAMBERGEN KENGESBAEVICH

ELLIPTIK TENGLAMA UCHUN KOSHI MASALASINING YECHILISH SHARTLARI TO‘G‘RISIDA

01.01.02 – Differensial tenglamalar va matematik fizika

FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PHD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

TOSHKENT – 2025

Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, Fan va Innovatsiyalar Vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida № B2024.3.PhD/FM1141 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus(rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (http://ik-fizmat.nuu.uz) va "ZiyoNet" ta'lim axborot tarmog'iga (http://www.ziyonet.uz/) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Alimov Shavkat Arifdjanovich** fizika-matematika fanlari doktori, professor, akademik
Rasmiy opponentlar:	**Mirsaburov Mirahmat** fizika-matematika fanlari doktori, professor
	Fayazov Kudratilla Sadriddinovich fizika-matematika fanlari doktori, professor
Yetakchi tashkilot:	**Farg'ona davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.FM.01.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil "8" aprel soat 15⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko'chasi, 4-uy. Tel.: (+99871) 227-12-24, faks: (+99871) 246-53-21, e-mail: nauka@nuu.uz).

Dissertatsiya bilan Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (38 -raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko'chasi, 4-uy. Tel.: (+99871) 246-02-24.

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil "24" mart kuni tarqatildi.

(2025 yil "24" mart dagi 2 -raqamli reestr bayonnomasi).

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

A.Sadullayev
ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi,
f.-m.f.d., professor, akademik

R.M.Jo'rayev
ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash ilmiy kotibi,
f.-m.f.f.d.(PhD)

A. A. Azamov
ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash huzuridagi
Ilmiy seminar raisi o'rinbosari,
f.-m.f.d., akademik

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda ilmiy va amaliy ahamiyatga ega fizika, mexanika, kimyo, biofizika, biotexnologiya va ishlab chiqarish bo‘yicha olib borilayotgan ko‘plab izlanishlar matematik fizika tenglamalari bilan ifodalangan masalalar markaziy o‘rinlardan birini egallaydi. Tabiiyki, fizika va texnologiyaning ba‘zi matematik modellarida parametr qiymatlarini olishda qandaydir xatolik bo‘lishi mumkin va bu holda modelda kichik xatolikka yo‘l qo‘yilmaydi, ya’ni berilganlarning kichik o‘zgarishi yechimning kichik o‘zgarishiga mos kelmasligi mumkin. Boshqacha qilib aytganda, turg‘unlik shartlari bajarilmasligi mumkin. Biz bunday masalalarni nokorrekt qo‘yilgan masalalar sinfiga kiritamiz. Masalan, elliptik tenglamalar uchun Koshi masalasi, giperbolik tenglamalar uchun Dirixle masalasi, manfiy vaqtli parabolik tenglama uchun Koshi masalasi. Elliptik tenglamalar uchun Koshi masalasida chegaraning qaysidir qismida masala berilgan va biz yechimni butun sohada qurish masalasini o‘rganamiz. Shuning uchun ham nokorrekt masalalar nazariy va amaliy jihatdan muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Jahon amaliyotida nokorrekt qo‘yilgan masalalarni o‘rganish funksiyalarning Furye almashtirishi va Furye qatori bilan bog‘liq. Chunki, masalani yechishda biz Furye almashtirishi va Furye qatorlarini o‘rganishga olib boramiz. So‘nggi paytlarda matematik fizikaning nokorrekt qo‘yilgan masalalari jadal rivojlanmoqda. Elliptik tenglamalar uchun Koshi masalasi amaliyotda turli sohalarda temperatura sohaning bir qismida berilsa, butun sohadagi temperaturani topish imkonini beradi. Shuningdek, geologiya va geofizika sohalarida ham qo‘llaniladi, bu yerda turli sharoitlarda tog‘ jinslari va yer ostidagi har xil qazilma boyliklar miqdorini va manbasini aniqlash uchun foydalaniladi. Bu sohada: chegaralanmagan yo‘lakchada, halqasimon sohada, silindrik va to‘rtburchak sohadalarda elliptik tenglamalar uchun Koshi masalasini yechish muhim ilmiy izlanishlar hisoblanadi.

Mamlakatimizda, ayniqsa, oxirgi yillarda ilmiy va amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan fundamental fanlarga, ular bilan bir qatorda geologiya va geofizika masalalarida juda muhim amaliy ahamiyatga matematik fizikaning nokorrekt qo‘yilgan masalalarini yechishga alohida e’tibor kuchaytirildi. Oddiy differensial tenglamalar, xususiy hosilali differensial tenglamalar va ularning sistemalari uchun nokorrekt qo‘yilgan masalalar bo‘yicha ajoyib natijalarga erishildi. “Differensial tenglamalar va matematik fizika” fanining ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha xalqaro standartlar darajasida ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish matematikaning asosiy vazifalari va faoliyat yo‘nalishlari etib belgilandi[1]. Shuning uchun farmonning bajarilishini ta’minlashda differensial tenglamalar va matematik fizika masalalarini hal etish muhim ahamiyatga ega. Bularning barchasi qaralayotgan masalalarning naqadar dolzarbligi va zarurligini ko‘rsatadi.

Ushbu dissertatsiya ishining predmeti va tadqiqot obyektlari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli farmoni, 2017-yil 17-fevraldagi “Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy-tadqiqot

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 7-maydagi «Matematika sohasidagi ta`lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘grisida»gi PQ-4708-son qarori

ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2789-sonli qarori, 2018-yil 27-apreldagi "Innovatsion g‘oyalar, texnologiyalar va loyihalarni amaliy joriy qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi PQ-3682-sonli qarori va 2019 -yil 9-iyuldagi “Matematika ta’limi va fanlarini yanada rivojlantirishni davlat tomonidan qo‘llab quvvatlash, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining V. I. Romanovskiy nomidagi matematika instituti faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4387 sonli Prezident qarori hamda 2020-yil 7-maydagi "Matematika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi PQ-4708 sonli Prezident qarori, bundan tashqari, mazkur faoliyatga tegishli barcha normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya ishi respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining IV “Matematika, mexanika va informatika” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. En birinchi 1923 yilda Hadamard Laplas tenglamasi uchun Koshi masalasining yechimi uzluksiz ravishda dastlabki ma’lumotlarga bog‘liq emasligini ko‘rsatadigan fundamental misol keltirdi. H.Han va H.J.Reynhardt o‘z maqolalarida silindrik sohadagi elliptik tenglamalar uchun Koshi masalalarini ko‘rib chiqdilar. Sobolev fazolarida Koshi masalalari uchun bir qator turg‘unlik baholari olingan bo‘lib, ular optimal bo‘lib chiqadi. Turg‘unlikni baholashdan xatoliklarni baholash mumkin bo‘lgan bir nechta tartibga solish usullari taklif etiladi. Regulyarizatsiya usullaridan klassik Hadamard misolida ko‘rsatiladigan raqamli yaqinlashishlarni hisoblash uchun foydalanish mumkin.

Atoqli sovet matematigi, akademiklar A.N.Tixonov va M.M.Lavrent’ev, ularning shogirdlari Koshi masalasi Laplas tenglamasi uchun nokorrekt qo‘yilgan va boshqa masalalar uchun korrekt qo‘yilganligini isbotladilar. Shuningdek, ular ushbu nokorrekt masalalarni yechishda regulyarizatsiya metodini taklif qilishdi. Shuningdek, A.N.Tixonov matematik fizikaning nokorrekt qo‘yilgan masalalarini sonli yechish usullarini o‘rgangan. Bundan tashqari, masala yechimining turg‘unligi va va regulyarizatsiya metodi Kabanikhin, Mizoxata, Ladijenskaya monografiyalarida uchraydi.

Keyinchalik fransuz olimlari R.Lates va J.L.Lions o‘z ishlariga kvaziteskarilanish usulini kiritdilar va berilgan tenglamani to‘rtinchi tartibli differensial tenglamaga keltirdilar va Laplas tenglamasini yechishda kvazi-yechim tushunchasini ko‘rsatdilar. O.E. Yaremko bu $r<|z|<1$ halqada Laplas tenglamasi uchun Koshi masalasini yechishning mavjudligi va yagonaligini isbotladi. Koshi masalasini yechishning integral tasviri topildi. Shuningdek, G.Alessandrini, L.Rondi, E.Rosset va S.Vessella keng umumiylikda va deyarli minimal hatolik ostida mohiyatan optimal turg‘unlik natijalarini taqdim etdilar. O‘zlarining argumentlarida umumiy sxema sifatida ular bunday turg‘unlikning barcha natijalarini yolg‘iz qavsli tuzilishdan va uch sferali tengsizlikdan foydalanish orqali olish mumkinligini ko‘rsatadi. T.Kalmenov, U.Iskakova aralash Koshi masalasi va bigarmonik tenglamaning yechilish shartlarini ko‘rib chiqdilar. Ushbu dissertatsiyadagi masalalarimiz bilan bog‘liq so‘nggi ilmiy natijalar Sh. Yarmuhamedov ishlarida ko‘rish mumkin. Ilmiy ishlarida davom ettirish formulasini va Laplas tenglamasi uchun Koshi masalasini yechish uchun regulyarizatsiya metodini ko‘rsatdi. Shuningdek, A.M.Muhamedjanov, R.Yarmuxamedov, Sh.Yarmuxamedov Laplas tenglamasi Koshi masalasini yechish asosida reaksiyalar kesmalarini ekstrapolyatsiya qilish usulini taklif qildilar. Yadro cho‘qqi konstantalarini topish usulini amaliy qo‘llash imkoniyatlari muhokama qildi. A.B.Xasanov, F.R.Tursunov Karleman funksiyasini samarali qurish Koshi masalasing regulyarlashtirilgan yechimini qurishga ekvivalent ekanligini ko‘rsatadi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Milliy universiteti ilmiy tadqiqot ishlari va V.I. Romanovskiy nomidagi matematika instituti F-FA-2021-424–sonli “Butun va kasr tartibli xususiy hosilali differensial tenglamalar uchun chegaraviy masalalarning yechimi” mavzusidagi loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqot ishining maqsadi tekislikda berilgan to'rtburchak, qatlam, halqa va silindrsimon sohadagi haroratni topish va tegishli xususiy hosilali differensial tenglamaning yechimi mavjudligini ko‘rsatishdan iborat**.**

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

Laplas tenglamasi uchun Koshi masalasining yechimi va to‘rtinchi tartibli xususiy hosilali differensial tenglamaning berilgan silindrik sohada kvaziteskarilanish usulida topilgan yechimi o‘rtasidagi bahoni topish;

berilgan soha uchun elliptik tenglama uchun Koshi masalasining yechimi mavjud bo‘ladigan funksiyalar sinfini topish;

elliptik tenglama uchun Koshi masalasining chegaralanmagan yo‘lakda yechimining mavjudligi va yagonaligini isbotlash;

konsentrik silindrda elliptik tenglama uchun Koshi masalasi yechimining mavjudligi va yagonaligini isbotlash.

Tadqiqotning obyekti. Elliptik tipdagi tenglama, to‘rtinchi tartibli xususiy hosilali differensial tenglama, o‘zgaruvchi koeffitsientli ikkinchi tartibli differensial tenglama, Eyler tenglamasi, xos qiymat masalasi.

Tadqiqotning predmeti. Elliptik tenglama uchun Koshi masalasi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot ishida matematik fizikaning zamonaviy usullari, o‘zgaruvchilarni ajratish usuli nazariyasi (Furye usuli), Furye almashtirishi va Furye qatorlaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat**:**

Laplas tenglamasi va to‘rtinchi tartibli xususiy hosilali differensial tenglama uchun Koshi masalasining yechimlari topilgan va yordamchi tenglama yechimining berilgan tenglama yechimiga intilishi isbotlangan;

elliptik tenglama uchun Koshi masalasining yechimi berilgan sohada mavjud bo‘ladigan funksiyalar sinfi yordamida topilgan, hamda undan muhim tengsizliklar keltirib chiqarilgan;

elliptik tenglama uchun Koshi masalasining chegaralanmagan yo‘lakdagi yechimining mavjudligi va yagonaligi haqidagi teoremalar maxsus lemmalar yordamida isbotlangan;

konsentrik silindrda Elliptik tenglama uchun Koshi masalasi yechimining mavjudligi va yagonaligi haqidagi teoremalar va muhim aprior baholar uchun maxsus lemmalar isbotlangan;

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Olingan natijalar va dissertatsiyada qo‘llanilgan metodlar oliy ta’lim muassasalari bakalavriat va magistratura talabalari uchun maxsus kurs sifatida o‘qitilishi mumkin. Bundan tashqari, ma’lumki teskari vaqtli parabolik tenglama uchun Koshi masalasi ham nokorrekt masala hisoblanib, olingan natijalardan ushbu masala yechimining mavjudligini va yagonaligini isbotlashda qo‘llanilishi mumkin.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Natijalar spektral nazariya usullari, o‘zgaruvchilarni ajratish usuli (Furye usuli) va matematik tahlil usuli yordamida olingan. Olingan barcha natijalar matematik jihatdan to‘g‘ri. Bundan tashqari, olingan dissertatsiya natijalari yuqori impakt-faktorga ega va nufuzli ilmiy jurnallarda chop etilgan hamda Xalqaro va Respublika konferensiyalarida ma’ruza qilinganligi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, dissertatsiya ishida olingan ilmiy natijalardan teskari vaqtli parabolik tenglama uchun Koshi masalasini chuqurroq tadqiq qilishda foydalanish mumkin. Xususan, ushbu tadqiqot ishida olingan aprior baholar va ba‘zi muhim tengsizliklar teskari vaqtli parabolik tenglama uchun Koshi masalasining yechimining mavjudligi va yagonaligini isbotlash uchun ishlatilishi mumkin. Bundan tashqari, olingan natijalardan ba‘zi bir nokorrekt qo‘yilgan masalalarni yechimida qator giperbolik kosinus yoki sinusdek cheksizlikka intilsa, ushbu yechimni yaqinlashtirish usullarini o‘rganish uchun foydalanish mumkin.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati soha chegarasining bir qismidagi harorat va uning oqimini bilish orqali butun sohadagi haroratni topish masalasini matematik modellashtirishda qo‘llash imkoniyati bilan belgilanadi. Bundan tashqari, agar suv ustidagi temperatura va uning oqimi ma’lum bo‘lsa, u holda suv tagidagi temperaturani topish imkoniyatini beradi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Berilgan sohada elliptik tenglama uchun qo‘yilgan Koshi masalasi bo‘yicha olingan natijalar asosida:

silindrik sohada va cheksiz yo‘lakda elliptic tenglama uchun qo‘yilgan Koshi masalasining yechimidan Uzb-Ind-2021-87-sonli “Li simmetriyasi tahlili, giperbolik sistemalarning Lyapunov bo‘yicha turg‘unligini tahlil qilish va modellashtirish” mavzusidagi xalqaro amaliy loyihada elliptik tenglama uchun Koshi masalasining yechimini topishda foydalanilgan (O‘zbekiston Milliy universitetining 2024-yil 26-sentyabrdagi 04/11-7840-sonli ma’lumotnomasi). Ilmiy natijaning qo‘llanishi konsentrik silindrda elliptik tenglama uchun Koshi masalasi yechimini mavjudligi va yagonaligini ko‘rsatish imkonini bergan;

Laplas tenglamasi uchun Koshi masalasi yechimi bilan bog‘liq olingan natijalardan № AP08855810 “Xususiy hosilali nolokal differensial tenglamalar uchun chegaraviy va boshlang‘ich-chegaraviy masalalarning yechilish masalalari” 2020-2022-y mavzusidagi xorijiy loyihada elliptik tenglama uchun Koshi masalasining yechimining yagonaligi va mavjudligini ko‘rsatishda foydalanilgan (Xoja Axmet Yassawi nomidagi Xalqaro qozoq-turk universitetining 2024-yil 3-oktyabrdagi 04/2685-sonli ma’lumotnomasi, Qozog‘iston). Ilmiy natijaning qo‘llanishi berilgan boshlang‘ich ma’lumotlardan foydalanib aprior baholar olish imkonini bergan;

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya tadqiqoti natijalari O‘zbekiston milliy universiteti Differensial tenglamalar va matematik fizika kafedrasining “Differensial tenglamalar va matematik fizikaning zamonaviy muammolari” ilmiy seminarida, V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika institutida M.S. Salohitdinov va T.D. Juraev nomidagi differensial tenglamalar va matematik fizika bo‘yicha ilmiy seminarida, Toshkent shahridagi Moskva davlat universiteti “Matematik fizikaning zamonaviy muammolari” nomli seminarida va bir qancha ilmiy-amaliy konferensiyalarda, jumladan, 5 ta xalqaro va 3 ta respublika konferensiyalarida muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 15 ta ilmiy ishlar chop etilgan bo‘lib, shundan 7 tasi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining falsafa doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda chop etilgan, 2 tasi SCOPUS ma’lumotlar bazalarida indekslangan jurnallarda chop etilgan, 5 tasi respublika jurnallarida chop etilgan maqolalar va 8 tasi tezisdir.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish qismi, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan tashkil topgan. Dissertatsiyaning hajmi 77 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarining rivojlanishini ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, mavzu bo‘yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi, muammoning o‘rganilganlik darajasi keltirilgan, tadqiqot maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Chegaralangan sohada elliptik tenglam uchun Koshi masalasining yechilish shartlari**” deb nomlangan birinchi bobida konsentrik silindrda Elliptik tenglama uchun qo‘yilgan Koshi masalasining yechimining mavjudligi va yagonaligi aprior baholar yordamida ko‘rsatilgan. A_σ funksiyalar sinfi kiritilib, Koshi masalasi yechimini ushbu funksiyalar sinfida mavjudligi va yagonaligini isbotlash imkonini beradigan yordamchi tengsizliklar isbotlandi. Va $k(r) = c r^{-2\alpha}$ bo‘lgan hol uchun yechimning aniq ko‘rinishi topilib, oldingi paragrafdagi teoremalarni qanoatlantirishi ko‘rsatilgan.

Birinchi bobdagi ba’zi ta’riflar va tasdiqlarni keltirib o‘tamiz.

Faraz qilayliq issiqlik silindrsimon bir jinsli $\Omega\times\mathbb{R}$ soha ichiga joylashtirilgan. Konsentrik silindrning ichki yuzasidagi tmeperatura va issiqlik oqimining qiymati ma’lum bolsin. Silindrik sohaning tashqi chegarasidagi temperaturaning qiymatini topish talab qilinsin.

Aytaylik Ω ikki o‘lchovli chegaralangan qavariq soha bo‘lsin. x^0 Ω soha ichidan olingan ixtiyoriy nuqta bolsin va $\rho < \mathrm{dis}\{x^0, \partial\Omega\}$.

Quyidagi belgilashni kiritamiz

$$\Omega_\rho = \{(x_1, x_2) \in \Omega : (x_1 - x_1^0)^2 + (x_2 - x_2^0)^2 > \rho^2\}.$$

Ma’lumki, $\partial\Omega_\rho = \Gamma_\rho \cup \partial\Omega$ bu yerda

$$\Gamma_\rho = \{(x_1, x_2) \in \mathbb{R}^2 : (x_1 - x_1^0)^2 + (x_2 - x_2^0)^2 = \rho^2\}.$$

Quyidagi silindrik sohada issiqliq tarqalish jarayonini qaraymiz

$$D=\Omega_\rho\times\mathbb{R}=\{(x_1,x_2,x_3)\in\mathbb{R}^3:(x_1,x_2)\in\Omega_\rho,\quad -\infty<x_3<+\infty\}.$$

Ichki silindrsimon sirt $\Gamma_\rho\times\mathbb{R}$ - bu issiqlik egallab turgan $\{(x_1-x_1^0)^2+(x_2-x_2^0)^2<\rho^2, x_3\in\mathbb{R}\}$ sohaning chegarasi va temperatura vaqtga bog‘liq emas.

Aytayliq, $u(x_1,x_2,x_3,t)$ $(x_1,x_2,x_3)\in D$ nuqtadagi va $t\geq 0$ vaqt momentidagi temperatura bo‘lsin. Issiqliq tarqalish jarayoni quyidagi tenglama bilan tasvirlanadi

$$\frac{\partial u}{\partial t}-\operatorname{div}[k(x)\operatorname{grad}u]=0,\quad x\in D,\quad t>0, \tag{1.1.1}$$

bu yerda $k(x)$-issiqlik o‘tkazuvchanlik koeffitsienti.

Berilgan sohaning ichki chegarasida quyidagi shartlar o‘rinli bo‘lsin

$$u(x)=\phi(x),\quad \frac{\partial u(x)}{\partial r}=\psi(x),\quad x\in\Gamma_\rho, \tag{1.1.2}$$

bu yerda $r=\sqrt{(x_1-x_1^0)^2+(x_2-x_2^0)^2}$.

ϕ va ψ funksiyalar ma’lum, $u(x)$ funksiyaning berilgan sohaning tashqi chegarasi $\partial\Omega$ dagi qiymatini topishimiz kerak.

Biz tenglamaning vaqtga bog‘liq bo‘lmagan yechimini qidiramiz, ya’ni $u=u(x)$. U holda berilgan (1.1.1) tenglama quyidagi ko‘rinishga keladi

$$Lu(x)\equiv\operatorname{div}[k(x)\operatorname{grad}u]=0.$$

Faraz qilaylik berilgan boshlang‘ich shartlar x_3 ga bog‘liq bo‘lmasin, ya’ni $u=u(x_1,x_2)$.

(r,θ) polyar koordinatasi bilan tanishamiz va markazi x_0 nuqtada bo‘lgan. Shuningdek faraz qilaylik $k=k(r)$ funksiya $C^2[0,+\infty)$ sinfga tegishli va $k(r)>0$ shartni qanoatlantirsin.

Ω sohaning chegarasining tenglamasi polyar koordinatalar sistemasida quyidagicha yozilishi mumkin $r=S(\theta),-\pi\leq\theta\leq\pi$. Bu yerda $S(\theta)$ 2π-davrli silliq funksiya.

Bu holda tenglama quyidagicha ko‘rinishga ega bo‘ladi

$$\frac{1}{r}\frac{\partial}{\partial r}\left(rk(r)\frac{\partial u}{\partial r}\right)+\frac{k(r)}{r^2}\frac{\partial^2 u}{\partial\theta^2}=0. \tag{1.1.3}$$

(1.1.2) shartlar esa quyidagicha

$$u(\rho,\theta)=\phi(\theta),\quad \frac{\partial u(\rho,\theta)}{\partial r}=\psi(\theta),\quad \theta\in[-\pi,\pi]. \tag{1.1.4}$$

Bu yerda ϕ va ψ θ argumentning 2π-davrli funksiyasi. U holda faraz qilaylik ϕ va ψ funksiyalar $L_2[-\pi,\pi]$ fazoga tegishli bo‘lsin.

(1.1.3)-(1.1.4) tenglamaning yechimi $u\in C^2(\Omega)$, Ω_ρ sohada (1.1.3) tenglamani qanoatlantiradi va (1.1.4) chegaraviy shartlarni quyidagi manoda qanoatlantiradi:

$$\lim_{r\to\rho^+}\int_{-\pi}^{\pi}|u(r,\theta)-\phi(\theta)|^2d\theta=0, \tag{1.1.5}$$

va

$$\lim_{r\to\rho^+}\int_{-\pi}^{\pi}\left|\frac{\partial u}{\partial r}(r,\theta)-\psi(\theta)\right|^2 d\theta=0. \qquad (1.1.6)$$

A Masala. *Berilgan $\phi\in L_2[-\pi,\pi]$ va $\psi\in L_2[-\pi,\pi]$ funksiyalar uchun (1.1.3)-(1.1.4) masalaning yechimi $u(r,\theta)$ ning $\partial\Omega$ chegaradagi qiymatini toping.*

A masalaning yechimi quyidagi shartni qanoatlantiradi

$$\lim_{\epsilon\to 0}\int_{-\pi}^{\pi}\left|u(S(\theta)-\epsilon,\theta)-\chi(\theta)\right|^2 d\theta=0. \qquad (1.1.7)$$

bu yerda $\chi\in L_2(\partial\Omega)$.

A_σ orqali quyidagi berilgan yo'lakda holomorf bo‘lgan $f(z)$ funksiyalar sinfini belgilaymiz

$$S_\sigma=\{z\in\mathbb{C}:|\operatorname{Im}z|\le\sigma\} \qquad (1.2.1)$$

va quyidagi shartni qanoatlantirsin:

$$f(z+2\pi)=f(z),\quad z=x+iy\in S_\sigma, \qquad (1.2.2)$$

va

$$\|f\|_\sigma^2=\sup_{|y|\le\sigma}\int_{-\pi}^{\pi}|f(x+iy)|^2dx<+\infty. \qquad (1.2.3)$$

Quyidagi Furye qatorini qaraymiz

$$f(x)=\sum_{k=-\infty}^{\infty}f_k e^{ikx}.$$

Teorema 1.2.1. *Ixtiyoriy $f\in A_\sigma$ funksiyalar uchun quyidagi tengsizliklar*

$$\frac{1}{4\pi}\|f\|_\sigma^2\le\sum_{k=-\infty}^{\infty}|f_k|^2\cosh 2\sigma k\le\frac{1}{2\pi}\|f\|_\sigma^2 \qquad (1.2.4)$$

o‘rinli

Quyidagicha belgilash kiritamiz

$$\sigma_1=\ln\frac{R_1}{\rho},\quad \sigma_2=\ln\frac{R_2}{\rho}. \qquad (1.3.3)$$

Ma’lumki, $\sigma_2\ge\sigma_1>0$. $S(\theta)=R=const$ bo‘lgan holda esa quyidagiga ega bo‘lamiz $\sigma_1=\sigma_2=\ln\frac{R}{\rho}$.

Teorema 1.3.1. *Faraz qilaylik berilgan ϕ va ψ funksiyalar uchun A masalaning yechimi mavjud bo‘lsin. U holda*

$$f(\theta)=\phi(\theta)-P\psi(\rho,\theta) \qquad (1.3.4)$$

funksiya ixtiyoriy $\sigma<\sigma_1$ uchun A_σ sinfga tegishli.

Teorema 1.3.2. *Aytaylik (1.3.4) funksiya biror $\sigma>\sigma_2$ uchun A_σ sinfga tegishli bolsin. U holda A masalaning yechimi mavjud va yagona bo‘ladi.*

Ω soha markazi x^0 nuqtada bo‘lgan aylana bo‘lgan holni qaraymiz. U holda quyidagi teorema o‘rinli.

Teorema 1.3.3. *Faraz qilaylik* $S(\theta)=R=const$ *bo‘lsin. U holda A masalaning yechimi mavjud bo‘lishi uchun (1.3.4) funksiyaning* A_σ *sinfga tegishli bo‘lishi zarur va yetarli, bu yerda* $\sigma=\ln\dfrac{R}{\rho}$.

Dissertatsiyaning “**Chegaralanmagan sohada elliptik tenglama uchun Koshi masalasining yechilish shartlari**” deb nomlangan ikkinchi bobida chegaralanmagan yo‘lakda elliptik tenglama uchun qo‘yilgan Koshi masalasining yechimining mavjudligi va yagonaligi aprior baholar yordamida ko‘rsatilgan. A_σ funksiyalar sinfi kiritilib, Koshi masalasi yechimini ushbu funksiyalar sinfida mavjudligi va yagonaligini isbotlash imkonini beradigan yordamchi tengsizliklar isbotlangan. Va oxirgi paragrafida berilgan funksiyaning A_σ sinfga tegishli bo‘lishi haqidagi misol ko‘rsatilgan.

Ikkinchi bobdagi muhim ta’rif va tasdiqlar bilan tanishamiz.

$P\subset\mathbb{R}^3$ qatlamda issiqlik tarqalish jarayonini qaraymiz

$$P=\{(x_1,x_2)\in\mathbb{R}^2,\quad -h(x_1,x_2)<x_3<0\}.$$

Bu yerda h o‘lchovli funksiya va

$$0<\inf_{(x_1,x_2)\in\mathbb{R}^2} h(x_1,x_2)\le \sup_{(x_1,x_2)\in\mathbb{R}^2} h(x_1,x_2)<+\infty.$$

Qatlamning yuqori asosi $\{x_3=0\}$ da temperatura va issiqlik oqimining qiymati ma’lum. Qatlamning quyi asosi $\{x_3=-h(x_1,x_2)\}$ dagi temperaturaning qiymatini topishimiz kerak.

Aytaylik $u(x_1,x_2,x_3,t)$ funksiya (x_1,x_2,x_3) nuqtadagi $t\ge 0$ vaqt momentidagi temperature bo‘lsin va $k(x_1,x_2,x_3)$ issiqlik tarqalish koeffitsienti. Issiqlik tarqalish jarayoni quyidagi tenglama bilan ifodalanadi.

$$\frac{\partial u}{\partial t}-\operatorname{div}[k(x)\operatorname{grad}u]=0. \tag{2.1.1}$$

chegaraviy shartlar

$$u(x_1,x_2,0,t)=\phi(x),\quad (x_1,x_2)\in\mathbb{R}^2, \tag{2.1.2}$$

va

$$\frac{\partial u(x_1,x_2,0,t)}{\partial x_3}=\psi(x),\quad (x_1,x_2)\in\mathbb{R}^2. \tag{2.1.3}$$

Quyi chegaradagi $u(x_1,x_2,-h(x_1,x_2),t)$ temperaturani toping.

Tenglamaning vaqtga bog‘liq bo‘lmagan yechimini qidiramiz. Shuningdek, faraz qilaylik $h(x_1)=h=const$ va issiqlik tarqalish koeffitsienti $k=k(x_3)$ faqat balandlikdan bog‘liq bo‘lsin.

$x=x_1$ va $y=-x_3$ belgilashlarni kiritamiz, u holda quyidagi masalaga kelamiz:

$$\frac{\partial^2 u}{\partial x^2}+\frac{1}{k(y)}\frac{\partial}{\partial y}\left[k(y)\frac{\partial u}{\partial y}\right]=0,\quad x\in\mathbb{R},\quad 0<y<h, \tag{2.1.4}$$

va quyidagi chegaraviy shartlar bilan

$$u(x,0)=\phi(x), \quad \frac{\partial u(x,0)}{\partial y}=\chi(x), \quad -\infty<x<+\infty. \tag{2.1.5}$$

Bu masalani quyidagi sohada qaraymiz

$$\Omega=\{(x,y)\in\mathbb{R}^2 \mid 0<y<h, x\in\mathbb{R}\}.$$

(2.1.4)-(2.1.5) masaladan quyidagi Koshi masalasiga oson kelish mumkin:

$$\operatorname{div}[k(y)\operatorname{grad}v(x,y)]=0, \quad x\in\Omega, \tag{2.1.9}$$

$$v(x,0)=\phi(x), \quad \frac{\partial v(x,0)}{\partial y}=0, \tag{2.1.10}$$

A Masala. *Berilgan $\phi\in L_2(\mathbb{R})$ funksiya uchun (2.1.9)-(2.1.10) masalaning yechimi $v(x,y)$ funksiyaning Ω sohaning yuqori chegarasidagi qiymatini toping.*

U holda A masalaning yechimi $u(x,y)$ funksiya (2.1.9) va (2.1.10) masalani qanoatlantiradi va shunday $\psi(x)$ funksiya mavjud bo‘lib quyidagi shartni qanoatlantiradi

$$\lim_{y\to h-0}\int_{-\infty}^{\infty}|u(x,y)-\psi(x)|^2\,dx=0 \tag{2.1.11}$$

Berilgan $\sigma>0$ uchun A_σ orqali $f\in L_2(\mathbb{R})$ va quyidagi yo‘lakda analitik davom ettirilgan funksiyalar sinfini belgilaymiz

$$S_\sigma=\{z\in\mathbb{C}:|\operatorname{Im}z|<\sigma\}, \tag{2.2.1}$$

va yana $f(z)$ funksiyaning analitik davomi quyidagi shartni qanoatlantirsin

$$\|f\|_\sigma^2=\sup_{|y|<\sigma}\int_{-\infty}^{\infty}|f(x+iy)|^2dx<+\infty. \tag{2.2.2}$$

Furye almashtirishini qaraymiz

$$\widehat{f}(\xi)=\int_{-\infty}^{\infty}f(x)e^{-i\xi x}dx. \tag{2.2.3}$$

Teorema 2.2.1. *Ixtiyoriy $f\in A_\sigma$ funksiyalar uchun quyidagi tengsizliklar*

$$\pi\|f\|_\sigma^2\le\int_{-\infty}^{\infty}|\widehat{f}(\xi)|^2\cosh 2\sigma\xi\,d\xi\le 2\pi\|f\|_\sigma^2 \tag{2.2.4}$$

o‘rinli.

Ushbu paragrafda berilgan masala yechimining mavjudligi va yagonaligi o‘rganilgan. Quyidagi teoremalar o‘rinli.

Teorema 2.3.1. *Aytaylik ϕ funksiya $\sigma=h$ uchun A_σ sinfga tegishli bolsin. U holda berilgan A masalaning yechimi mavjud va yagona.*

Theorem 2.3.2. *Faraz qilaylik berilgan $\phi\in L_2(\mathbb{R})$ funksiya uchun A masalaning yechimi mavjud bo‘lsin. U holda ϕ funksiya $\sigma=h$ uchun A_σ sinfga tegishli.*

Dissertatsiyaning “**Laplas operatori uchun Koshi masalasining regulyarizatsiyasi haqida**” deb nomlangan uchinchi bobida Laplas tenglamasi uchun qo‘yilgan Koshi masalasi yechimi uchun regulyarizatsiya metodini qaraymiz. Yordamchi tenglama uchun Koshi masalasi qaralib yordamchi masala yechimining berilgan masala yechimiga intilishi isbotlangan.

Uchinchi bobdagi muhim ta’rif va tasdiqlar bilan tanishamiz.

Quyidagi silindrik sohada issiqlik tarqalish jarayonini qaraymiz(ingichka bir jinsli truba)

$$S=\{(x,y,z)\in\mathbb{R}^3 : x^2+y^2=R^2,\, 0\le z\le h\}.$$

Silindrning quyi asosida temperaturaning qiymati beriladi va issiqlik oqimi yoq. Silindrning yuqori asosidagi temperaturani topishimiz kerak.

Quyidagi silindrik koordinatalar sistemasi bilan tanishamiz

$$r=\sqrt{x^2+y^2},\quad \theta=\frac{y}{x},\quad z=z.$$

U holda

$$S=\{(r,\theta,z): r=R, -\pi\le\theta\le\pi, 0\le z\le h,\}$$

Issiqlik tarqalish jarayoni quyidagi tenglama bilan ifodalanadi

$$\frac{\partial u}{\partial t}=\Delta u.$$

Demak, $u(\theta,z,t)$ temperatura uchun quyidagi tenglamaga kelamiz

$$\frac{\partial u}{\partial t}=\frac{k(z)}{R^2}\frac{\partial^2 u}{\partial\theta^2}+k(z)\frac{\partial^2 u}{\partial z^2}+k'(z)\frac{\partial u}{\partial z}. \tag{3.1.1}$$

va quyidagi chegaraviy shartlar bilan

$$u(-\pi,z,t)=u(\pi,z,t),\quad \frac{\partial u}{\partial\theta}(-\pi,z,t)=\frac{\partial u}{\partial\theta}(\pi,z,t),\quad 0\le z\le h, \tag{3.1.2}$$

$$\frac{\partial u(\theta,0,t)}{\partial z}=0,\quad -\pi\le\theta\le\pi, \tag{3.1.3}$$

and

$$u(\theta,0,t)=\phi(\theta),\quad -\pi<\theta<\pi. \tag{3.1.4}$$

Silindrning $z=h$ yuqori asosidagi $u(\theta,h,t)$ temperaturani topishimiz kerak.

Berilgan tenglamaning vaqtga bo‘g‘liq bolmagan $u=u(\theta,z)$ yechimini qidiramiz. U holda (3.1.1) tenglama quyidagi korinishga ega boladi

$$\frac{k(z)}{R^2}\frac{\partial^2 u}{\partial\theta^2}+k(z)\frac{\partial^2 u}{\partial z^2}+k'(z)\frac{\partial u}{\partial z}=0.$$

O‘z navbatida $R=1$ deb faraz qilsak, quyidagi tenglamani qaraymiz

$$k(z)\frac{\partial^2 u}{\partial\theta^2}+k(z)\frac{\partial^2 u}{\partial z^2}+k'(z)\frac{\partial u}{\partial z}=0,\quad (\theta,z)\in S, \tag{3.1.6}$$

chegaraviy shartlar

$$u(\theta,0)=\phi(\theta),\quad \frac{\partial u(\theta,0)}{\partial z}=0,\quad -\pi\le\theta\le\pi. \tag{3.1.7}$$

$D(S)$ orqali berilgan S silindrda cheksiz marta differensiallanuvchi va $z=h$ asosiga yaqin no‘lga aylanadigan funksiyalar sinfini belgilaymiz.

Ta'rif 3.1.1. *Aytaylik* $\phi \in L_2[-\pi,\pi]$ *bo'lsin.* $L_2(S)$ *fazodan olingan* $u(\theta,z)$ *funksiya uchun (3.1.6)-(3.1.7) masalaning yechimi mavjud boladi, agarda ixtiyoriy* $v \in D(S)$ *funksiya uchun quyidagi tenglik*

$$\int_S u(\theta,z)\left(k(z)\frac{\partial^2 v}{\partial\theta^2}+k(z)\frac{\partial^2 v}{\partial z^2}+k'(z)\frac{\partial v}{\partial z}=0\right)d\theta dz=\int_{-\pi}^{\pi}\phi(\theta)\frac{\partial v}{\partial z}(\theta,0)d\theta \tag{3.1.8}$$

o'rinli bo'lsa.

Tasdiq 3.1.1. *Agar (3.1.6)-(3.1.7) masalaning yechimi mavjud bo'lsa, u holda bu yechim yagona bo'ladi.*

Quyidagi tasdiqni oson isbot qilish uchun $k(z)=1$ deb tanlab olamiz. U holda yechimni quyidagi ko'rinishda qidiramiz

$$u(\theta,z)=\sum_{k=-\infty}^{\infty}c_k(z)e^{ik\theta}.$$

$c_k(z)=\phi_k\cosh kz$ koeffitsientlar va izlangan yechim quyidagicha ko'rinishda boladi

$$u(\theta,z)=\sum_{k=-\infty}^{\infty}\phi_k\cosh kz\, e^{ik\theta}.$$

Quyidagi belgilash kiritamiz

$$\psi(\theta)=u(\theta,h). \tag{3.1.23}$$

ψ - funksiyaning yoyilmasi quyidagicha boladi

$$\psi(\theta)=\sum_{k=-\infty}^{\infty}\psi_k e^{ik\theta}.$$

Quyidagi yordamchi masalani qaraymiz

$$\frac{\partial^2 u}{\partial z^2}+\frac{\partial^2 u}{\partial\theta^2}+\alpha\frac{\partial^4 u}{\partial\theta^4}=0,\quad -\pi<\theta<\pi,\quad 0<z<h, \tag{3.1.25}$$

(3.1.7) bilan bir xil chegaraviy shartlarga ega.

Yechimni quyidagi ko'rinishda qidiramiz

$$u(\theta,z)=\sum_{k=-\infty}^{\infty}c_k(z)e^{ik\theta}$$

noma'lum $c_k(z)$ koeffitsient bilan birga.

$c_k(z)=\phi_k\cos\mu_k z$ koeffitsientlarni ushbu korinishda topamiz va izlangan yechim quyidagi ko'rinishda bo'ladi

$$u_\alpha(x,t)=\sum_{k=-\infty}^{\infty}\phi_k\cos\mu_k z\, e^{ik\theta}, \tag{3.1.26}$$

bu yerda

$$\mu_k=\mu_k(\alpha)=\sqrt{\alpha k^4-k^2}. \tag{3.1.27}$$

Faraz qilaylik chegaraviy qiymatlar biror $\delta>0$ xatolik bilan berilsin. Buning ma'nosi shundan iboratki ϕ funksiyaning o'rniga ϕ_δ funksiyani olamiz

$$\| \phi(\theta) - \phi_\delta(\theta) \|_{L_2(\mathbb{T})} \le \delta. \qquad (3.2.1)$$

Aytaylik $u_{\delta,\alpha}(\theta, z)$ funksiya (3.1.25) tenglamaning quyidagi chegaraviy shartlardagi yechimi bo‘lsin

$$u_{\delta,\alpha}(\theta, 0) = \phi_\delta(\theta). \qquad (3.2.2)$$

Agar izlanayotgan funktsiya faqat $L_2(\mathbb{T})$ fazosiga tegishli ekanligi ma‘lum bo‘lsa, quyidagi yaqinlashish natijasi yaqinlashish tezligi bahosini hisobga olmasdan o‘rinli bo‘ladi.

Teorema 3.2.1. *Faraz qilaylik $\psi(\theta) = u(\theta, h)$ funksiya mavjud va $L_2(\mathbb{T})$ fazoga tegishli bolsin. Quyidagicha belgilash kiritamiz*

$$\alpha = \alpha(\delta) = \frac{\lambda^2}{\ln^2 \delta}, \quad 0 < \delta < 1, \qquad (3.2.9)$$

bu yerda $\lambda > h$.

U holda

$$\lim_{\delta \to 0^+} \| u_{\delta,\alpha}(\theta, h) - \psi(\theta) \| = 0. \qquad (3.2.10)$$

Teorema 3.2.2. *Faraz qilaylik $\psi \in L_2^\beta(\mathbb{T})$ bo‘lsin, bu yerda $0 < \beta \le 3$, va quyidagi shart o‘rinli bo‘lsin*

$$\| \psi \|_\beta \le 1. \qquad (3.2.13)$$

Aytaylik $\alpha = \alpha(\delta)$ (3.2.9) tenglik bilan aniqlangan bo‘lsin. U holda $0 < \delta < 1$ intervaldan olingan inxtiyoriy δ uchun quyidagi baho

$$\| u_{\delta,\alpha}(\theta, h) - \psi(\theta) \| \le C(h, \beta) \left(\ln \frac{1}{\delta} \right)^{-2\beta/3}, \quad 0 < \delta < 1, \qquad (3.2.14)$$

o‘rinli.

XULOSA

Dissertatsiyada o‘zgaruvchilarni ajratish usuli (Furye usuli) va Furye almashtirishi yordamida yo‘lakda va silindrdagi elliptik tenglama uchun Koshi masalasini o‘rganishga bag‘ishlangan. Ko‘rib chiqilayotgan masalalar yechimining mavjudligi va yagonaligi aprior baholar yordamida ko‘rsatilgan.

Tadqiqotning asosiy natijalari quyidagilardan iborat:

1. Laplas tenglamasi va to‘rtinchi tartibli qisman differensial tenglama uchun Koshi masalasining yechimlari topildi va yordamchi tenglamaning yechimi berilgan tenglamaga yondashishi isbotlangan;

2. Elliptik tenglama uchun Koshi masalasining qaysi yechimi berilgan sohada mavjud bo‘lishi mumkin bo‘lgan funksiyalar sinfi topildi, muhim tengsizliklar isbotlangan;

3. Konsentrik silindrda elliptik tenglama uchun Koshi masalasi yechimining mavjudligi va yagonaligi haqidagi teoremalar isbotlangan;

4. Cheksiz yo‘lakda elliptik tenglama uchun Koshi masalasi yechimining mavjudligi va yagonaligi haqidagi teoremalar isbotlangan.

SCIENTIFIC COUNCIL AWARDING OF THE SCIENTIFIC DEGREES
DSc.03/30.12.2019.FM.01.01 NATIONAL UNIVERSITY OF UZBEKISTAN
NATIONAL UNIVERSITY OF UZBEKISTAN

QUDAYBERGENOV ALLAMBERGEN KENGESBAEVICH

ON THE SOLVABILITY CONDITIONS OF THE CAUCHY PROBLEM FOR THE ELLIPTIC EQUATION

01.01.02 – Differential Equations and Mathematical Physics

ABSTRACT OF DISSERTATION OF THE DOCTOR OF PHILOSOPHY (PHD)
ON PHYSICAL AND MATHEMATICAL SCIENCES

TASHKENT – 2025

The theme of dissertation of doctor of philosophy (PhD) on physical and mathematical sciences was registered at the Supreme Attestation Commission at the Ministry of Higher education, Science and Innovations of the Republic of Uzbekistan under number № B2024.3.PhD/FM1141

Dissertation has been prepared at National university of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek.

The abstract of the thesis is posted in three languages (Uzbek, English, Russian (summary)) on the website http://ik-fizmat.nuu.uz and in the website of "ZiyoNet" Information and educational portal (http://www.ziyonet.uz).

Scientific supervisor:	**Alimov Shavkat** Doctor of Sciences in Physics and Mathematics, Academician
Official opponents:	**Mirsaburov Mirahmat** Doctor of Sciences in Physics and Mathematics, professor
	Fayazov Kudratilla Doctor of Sciences in Physics and Mathematics, professor
Leading organization:	**Fergana state university**

Defense will take place " 8 " april 2025 at 15[00] at the meeting of Scientific Council number DSc.03/30.12.2019.FM.01.01 at National university of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek (Address: University str. 4, Almazar region, Tashkent, 100174, Uzbekistan, Tel: (+99871) 246-53-21, Fax (+99871) 246 53 21, e-mail: nauka@nuu.uz).

Dissertation is possible to review in Information-resource centre at National university of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek (is registered № 38) (Address: University str. 4, Almazar region, Tashkent, 100174, Uzbekistan, Ph.: (+99871) 246-02--24).

Abstract of dissertation sent out on "24" march 2025 year

(Mailing report № 2 on "24" march 2025 year)

A.Sadullayev
Chairman of Scientific Council
on award of scientific degrees,
D.F.-M.S., Academician

R.M.Juraev
Scientific secretary of Scientific Council
on award of scientific degrees,
PhD in Math and Physics

A.A. Azamov
Deputy Chairman of Scientific seminar under
Scientific Council on award of scientific degrees,
D.F.-M.S., Academician

INTRODUCTION

Actuality and demand of the theme of the dissertation. In a global scale, many scientific and practical researches in physics, mechanics, chemistry, biophysics, biotechnology and production conducted are brought to the ill-posed problem which expressed by equations of mathematical physics occupy a central place. Naturally, in some mathematical models of physics and technology, there maybe some error in the taking of parameter values and in this case, model is not allow a small error, i.e small change of givens may not correspond of small change of solution. In other words, stability conditions may not fulfilled. We include such problems in the class of ill-posed problems. For instance, Cauchy problem for elliptic equations, Dirichlet problem for hyperbolic equations, Cauchy problem for parabolic equation with negative time. In heat conducting process, we know the temperature at the currently time in some domain and stability problem is studied in problem of finding the temperature before the currently time and we need to find conditions which provide the stability. Problem is given on some part of boundary in Cauchy problem for Elliptic equations and we study problem of building the solution on whole domain. But, in there stability conditions are broken and it leads to difficulty to find the solution. That is why, ill-posed problems are considered important from both theoretical and practical sides

In world practise, studying ill-posed problems are related to the Fourier transform of functions and Fourier series of functions. Because, we lead to studying of Fourier transform and Fourier series while solving the problem. In recent times, ill-posed problems of mathematical physics have been rapidly developed. The Cauchy problem for elliptic equations is used in practice in various fields, where the temperature in one part of the sphere is given, and the temperature in the entire sphere can be found. It is also used in the fields of geology and geophysics, where it is used to determine the amount and source of various rocks and minerals under different conditions. In this field: solving the Cauchy problem for elliptic equations in unbounded stripe, ring-type domain, cylinder and rectangle-type domain is accounted scientific researches.

In our country, in particular, in recent years, special attention has been paid to fundamental sciences of scientific and practical importance, as well as to solving incorrectly posed problems of mathematical physics, which have very important practical significance in the issues of geology and geophysics. Remarkable results were obtained by ill-posed problem of ordinary differential equations, partial differential equations and their systems. Conducting scientific research at the level of international standards in the priority areas of “Differential Equations and Mathematical Physics”[2] has been defined as the main tasks and areas of activity of the mathematics. Therefore, it is important to solve problem of differential equations and mathematical physics in ensuring the execution of decree. All of this shows how urgent and necessary the issues under consideration are.

